

INKLYUZIV TA'LIMNING XALQARO VA  
O'ZBEKISTONDAGI HUQUQIY ASOSLARI

**Iskandarova Oqiljon Shavkat qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti milliy go'ya,  
ma'naviyat asoslari va huquq ta'lifi yo'nalishi talabasi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada inkyuziv ta'lim tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va xalqaro hamda milliy darajadagi huquqiy asoslari taxlil qilinadi. Inkyuziv ta'lim nogironligi bo'lgan va maxsus ehtiyojga ega shaxslar uchun umumiyligi ta'lim muhititida teng sharoitlar yaratish g'oyasiga asoslanadi. Maqolada BMT, YUNESCO, kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan hujjatlar muhim hujjatlar, jumldan, "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" va "Salamanka deklaratsiyasi" asosida ta'limdagi inkyuzivlik tamoyillari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonda so'nggi yillarda qabul qilingan qonun va qarorlar jumladan, "Nogironligi bo'lgan shaxslar to'g'risida"gi Qonun hamda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun doirasida inkyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar olib berildi. Maqola inkyuziv ta'limni huquqiy asosda rivojlantirish borasidagi xalqaro tajriba va milliy yondashuvlarning o'zaro bog'liqligini tahlil qilishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** YUNESKO, Global, Inkyuziv, huquq, deklaratsiya, farmon, qaror, prezident, konvensiya, ratifikatsiya.

**Аннотация:** в этой статье анализируется концепция инклюзивного образования, его содержания и юридической основы международного и национального уровня. Идея создания равных условий для создания неравных условий, которые являются инвалидностью инклюзивного образования и являются специализированной личностью, основана на создании равных условий. В статье подчеркиваются принципы включения в образование на основе важных документов, включая Конвенцию о правах инвалидов, и «в статье в статье». В последние годы в последние годы Узбекистан также был обнаружен о разработке людей с ограниченными возможностями в развитии инклюзивного образования в рамках исследования. Статья служит для анализа связей международного опыта и национальных подходов к юридическому развитию литературы, литературной.

**Ключевые слова:** ЮНЕСКО, Глобальный, Инклюзивный, Закон, Декларация, Указания, Конвенция, Конвенция, Ратификация.

**Annotation:** In this article, the concept of inclusive education, its content and the legal basis of international and national levels is analyzed. The idea of creating equal conditions for creating unequal conditions, which is a disability of inclusive education and are specialized personality, is based on the creation of equal conditions.

The article highlights the principles of inclusion in education on the basis of important documents, including the Convention on the Rights of Disabled, and " on the article in the article. In recent years, in recent years, Uzbekistan has also been discovered on the development of persons with disabilities in the development of the Inclusive Education, within the framework of the study. The article serves to analyze the connections of the international experience and national approaches to the legal development of the literature, literary.

**Keywords:** UNESCO, global, inclusive, law, declaration, decrees, convention, convention, ratification.

## **KIRISH**

Bugungi kunda jamiyatda barcha qatlamaq vakillarining teng huquqli ta'lim olishiga imkon yaratish masalasi global miqyosda dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Xususan, inklyuziv ta'lim- bu nogironligi bo'lgan bolalar, maxsus ehtiyojga ega shaxslar, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar hamda boshqa turli sabablarga ko'ra ta'lim olishda to'siqlarga duch kelayotgan shaxslar uchun umumiy ta'lim muhitida o'qish imkonini beruvchi yondashuvdir. Bunday tizim har bir insonning individual ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda, ularni jamiyat hayotiga to'liq jalb etishni ko'zda tutadi.

O'zbekiston Respublikasida ham oxirgi yillarda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va uni barchaa uchun ochiq, adolatli qilish bo'yicha muhim islohotlar olib borilmoqda. "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunga kiritilgan o'zgartirishlar, Prezident farmon va qarorlari orqali inklyuziv ta'limning huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda.

Bugungi kunda Respublika bo'yicha jismoniy yoki ruhiy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun jami 86 ta ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlari 21,2 ming nafar, 21 ta sanatoriya turidagi maktab internatlari 6,1 ming nafar o'quvchilar ta'lim-tarbiya oladi. Shuningdek, uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan 13,3 ming nafar o'quvchilar uyda yakka tartibda o'qitiladi.

## **ASOSIY QISM**

Inkyuziv ta'lim alohida yordamga muxtoj bolalar me'yorida rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta'lim-tarbiya olishlarini ta'minlaydi. Shuning uchun ham ahamiyatlidir. BMT tomonida 1948 yilda qabul qilinga-inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ta'lim olish har bir insonning asosiy va ajralmas huquqi ekanligi alohida e'tirof etilgan.

- Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi barcha insonlarning huquq va erkinliklarini kafolatlar ekan, bu Deklaratsyaning barcha bandlari maxsus ehtiyojli insonlarga ham tegishliligi aniqlandi.

Nogiron shaxslarning huquqlarini yanada mustahkamlash va kafolatlash maqsadida BMT 1975-yilda Nogiron shaxslar huquqlari to'g'risidagi Deklaratsiyani

qabul qildi. Mazkiur Deklaratsiyada ta'kidlanishicha: - Nogironlar shaxsiyatini hurmat qilish huquqi ularda tug'ilishi bilan mavjud bo'ladi. Nogironlikning kelib chiqishi, tabiat va jiddiylik darajasidan qat'iy nazar, fuqaro o'z yoshidagi tengdoshlari bilan bir xul huquqlarga egadirlar, shu bilan birga ular mumkin qadar to'laqonli yaxshi hayot kechirish huquqiga ham ega (Nogiron shaxslar huquqlari to'g'risidagi Deklaratsiya , 3-modda). Xuddi shunday bolalarni huquqlarini muxofaza qilish maqsadida BMT 1989-yilda Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani qabul qildi. Bollar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya bolalarning huquqlarini hamma joyda himoyalash maqsadida ishlab chiqilgan inson huquqlari borasidagi xalqaro shartnomasi hisoblnadi. U qariyb butun jahon mamlakatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan 191 mamlakat ko'ngilli tarzda zimmalariga Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya qoidalarni ma'muriy qonunchilik, sud va boshqa chora – tadbirlar yordamida hayotga tatbiq etish majburiyatini oladilar. Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya kompleks va ko'p qirrali xarakterda bo'lib, bu barcha bolalar uchun inson huquqlarining fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy singari jabhalarni ta'min etadigan yagona Konvensiyadir.

Salamanka Bayonoti va ish faoliyati rejasida – Ta'lim hamma uchun shiori ilgari surilmoqda. – Ta'lim hamma uchun shiori deganda nogiron bo'lgan yoki jamiyat ichida ajratib qo'yilgan guruhlardan kelib chiqqan bolalarning ham tenghuquqlilik asosida ta'lim olishlari tushuniladi .

Ushbu xarakter rejasining tahlili shuni ko'rsatadiki, asoslanadigan muhum tamoyili quyidagilardan iborat:

- Maktablar jismoniy, aqliy, ijtimoiy, emotsional, tilidagi yoki boshqa nuqsonlaridan qat'iy nazar hamma bolalarni qabul qilishi kerak. Ularga ruhiy va jismoniy nuqsoni bor bolalar, boshpanasiz bolalar, ko'chmanchi xalqlarga tegishli bo'lgan bolalar, etnik yoki madaniy kamchikni tashkil etgan oilaning bolalari kiradi ( Harakat Rejasiga kirish 3-chi band).

Salamanka Bayonoti va ish faoliyati Rejasida maxsus ehtiyojli bolalarga umumta'lim tizimini sharoitida inklyuziv ta'lim berish lozimligi alohida ta'kidlanb, har bir bolaning boshqalarnikiga o'xshamagan o'z ehtiyojlari mavjudligi, shunigdek, har bir bola yashash joyiga yaqin bo'lgan maktabga borish huquqiga egaligi alohida ta'kidlab o'tilgan. Bunday maktablarning asosiy maqsadi barcha bolalarga samarali ta'lim beribgina qolmay, maxsus ehtiyojli bolalarga nisbatan inklyuziv va iliq munosabatli jamiyat yaratib berishdir.

YUNESKO tomonidan olib borilayotgan global tashabbuslar ham inklyuziv ta'limni rivojlantirishda asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. “Ta'lim barchaga” g'oyasi doirasida har bir bolaga, uning ehtiyojlaridan qat'i nazar, teng sharoitda ta'lim olish imkonini yaratish xalqaro siyosatga aylangan. O'zbekiston ham ushbu xalqaro me'yor va standartlarga mos ravishda o'zining milliy qonunchiligini va ta'lim tizimini

takomillashtirish yo‘lida ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayni vaqtida yurtimizda bir nechta maktabgacha va umumta’lim muassasalari inklyuziv tizim asosida faoliyat olib bormoqda. Bunda YUNISEF, JICA kabi xalqaro tashkilotlariningtexnik va medodik yordami katta ahamiyatga ega.

### **XULOSA**

Inklyuziv ta’lim – zamonaviy jamiyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Har bir shaxsning teng huquq asosida sifatli ta’lim olishini ta’minlaydi. Xalqaro huquqiy hujjatlarda o‘z aksini topadi. Xususan, BMT, Yunesko, YUNISEF va Inson huquqlari deklaratsiyasini misol qilib olish mumkin. Bu tashkilotlar tashabbuslari inklyuziv ta’lim tamoyillari global miqyosida qo‘llab quvvatlanmoqda. O‘zbekistonda ham inklyuziv ta’limga va bolalar huquqlarga, imkoniyati cheklanganlarni o‘qitishga katta ahamiyat berilmoqda. Bu borada ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Mening xulosam shuki, inklyuziv ta’lim bu faqat ta’lim shakli emas, balki insonparvarlik, bag’rikenglik va ijtimoiy birdamlik g‘oyalarini ifoda etuvchi tizim deb hisoblayman.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi;
3. Inklyuziv ta’lim va Gospital pedagogika o‘quv uslubiy majmua;
4. hppts://slideplayer.fr
5. hpps://oefen.uz